

UDK: 911.375(575)

Nematov A.N.

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrası

katta o'qituvchisi

Buxoro, O'zbekiston

JONDOR TUMANI TOPONIMLARI VA ULARNI O'RGANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jondor tumani toponimlari va ularni o'rganishning geografik jihatlari hamda tumanga tegishli ayrim joy nomlarining izohi batafsil yoritgan.

Kalit so'zlar: Toponimika, oykonim, gidronim, oronim, etnotoponim, neotoponim, etimologiya.

Нематов А.Н.

БухГУ, старший преподаватель

кафедры Экология и географии

Бухара, Узбекистан

ТОПОНИМЫ ДЖАНДАРСКОГО РАЙОНА И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИХ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация: В данной статье подробно освещены топонимы Жондорского района и географические аспекты их изучения, а также объяснение некоторых топонимов, относящихся к району.

Ключевые слова: Топонимика, ойконим, гидроним, ороним, этнотопоним, неотопоним, этимология.

Geografik joy nomlari (toponimlar)ni o'rganish bugungi kunning eng zaruriy masalalaridan biri hisoblanadi. Sababi, har bir joy nomi shu hududning tabiatini, tarixini, madaniyatini, shu hududda yashovchi xalqlarning urf-odati va an'analarini o'zida aks ettiradi. Toponimika ayniqsa, geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponim - geografik obyektning aniq manzilidir. Nomlar

joyning geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarur. Geografik xaritada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o‘rin tutadi[4]. Zamonaviy toponimika fanining yutuqlarini aslida bundan oldingi davrlarda tarix, tilshunoslik, geografiya fanlari qo‘lga kiritgan katta-katta muvaffaqiyat mahsuli deb qaramoq kerak. Ana shu fanlarsiz toponimikani tasavvur etish qiyin, albatta. Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada beriladigan ma’lumotlarni hududiy bog‘lashda foydalaniladi.

Umuman, geografiyada joy yoki geografik obyekt nomi bilan bog‘lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish kerak. Geografik nomlarni chuqur tushunishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarini) o‘rganish yordam beradi. Mahalliy geografik terminlarni tushunish atrof-muhitni ongli bilib olishga, o‘z o‘lkasiga, vataniga bo‘lgan muhabbatini oshirishga, yordam beradi[2].

Jondor tumani Buxoro viloyatining qadimiy maskanlaridan biri bo‘lib, uning tarixiy-geografik jihatdan shakllanishi va rivojlanib borishi Zarafshon daryosi bilan bog‘liqdir. Jondor tumani viloyatimizning ana shunday o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hududlardan biridir. Tuman hududi qadimdan aholi manzilgohi sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jondor tumani hududidagi toponimlarning asosiy qismini oykonimlar tashkil etadi va gidronimlar, oronimlar salmog‘i kamroq.

Quyida Jondor tuman hududidagi joy nomlari izohi bilan tanishamiz:

Torob – qishloq. Tarixiy manbalarda Torob qishlog‘i Buxorodan ham oldin paydo bo‘lganligi qayd qilingan. Qishloq dastlab Narshaxiyning Buxoro tarixi asarida tilga olingan. Bu qishloq 1238-yilda dehqon va hunarmandlarning mo‘g‘ullarga va mahalliy mulkdorlarga qarshi ko‘targan qo‘zg‘oloni bilan mashhurdir; Torob – daryo bo‘yi demakdir.

Varaxsha - Buxorodan 30 km shimoli-g‘arbdagi qadimiy shahar xarobalari. Varaxsha Buxorodan ham qadimiy shahar bo‘lgan. X asrgacha

Buxoro hokimligi-buxorxudotlar qarorgohi Varaxsha bo'lgan. Varaxsho shahri Varaxsha arig'i bo'yida edi. Shahar nomi Afraxsha, Baraxsha, Faraxsha shaklida ham uchraydi. Etimologiyasi ma'lum emas.

Tobagar so'zi forscha so'zidan olingan bo'lib, hunarmandlar qishlog'i degan ma'noni anglatadi.

Chorzona so'zi forschadan olingan bo'lib "Chor Zana" ya'ni "to'rtta ayol" degan ma'noni bildiradi.

Yobusxo'r – Yovlar urish qilib kelgan vaqtda yarador bo'lganlarini shu joyda qoldirib, o'z rizqingni o'zing topib egin deb tashlab ketilgan. Shu sababli Yobusxo'r deb nomlangan.

Xo'jalar – Tarixiy manbalarda aniqlanishicha bu qishloqning joyi jangalzorlardan iborat tashlandiq bo'lgan. Besh oltita xo'jalar oilalari kelib shu yerdan qo'nim topgan va hozirgi kungacha Xo'jalar qishlog'i deb yuritilmoqda.

Jo'yimo'min – Bu qishloq taxminan XIII-XIV asrlar tashkil topgan bo'lib qishloq aholisi dehqonchilik qilishlari uchun suvni etishmasligidan judayam qiynalishgan. Qishloq oqsoqollari va aholisi to'planib qishloqqa suv keltirish uchun yangi ariq chiqarishgan. Bu ariqni chiqarilishiga Mo'min ismli fuqaro bosh bo'lganligi sababli qishloq nomini ham Jo'yimo'min deb atashgan.

Paxtakor – Qishloqning asl tarixiy nomi Maxsumlar bo'lib shu joyda yashab o'tgan aqlli, vijdonli, oqil uch amakivachcha, ya'ni Qudrat Maxsum, Murod Maxsum va Hikmat Maxsumlarni nomiga Maxsumlar qishlog'i deb yuritilgan. Keyinchalik qishloqqa Paxtakor nomi berilib hozirgi kungacha shu nomda yuritilayapti.

Zandavois – Bu qishloq tarixi taxminan XVII-asrning oxirlari XVIII-asrga bog'liq bo'lib, qishlog'da ziyoli, oqila ayollar ko'proq bo'lganligi sababli Zandavois ya'ni xotinlar kengashi yoki ayollar maslahati degan ma'noni bildirar ekan.

Shamshirgaron - Taxminan XVIII-XIX asrlarda tashkil topgan bu qishloqda asosan hunarmand usto misgarlar yashashgan. Ko'pchilik

hunarmandlar esa shamshir va pichoqsozlik bilan shug'ullanishgan. Shu sababli qishloq Shamshirgaron nomi bilan yuritilmoqda.

Yuqori Luqmon va Quyi Luqmon - Quyi Luqmon eski qishloq bo'lib Luqmoni hakim tabib o'tganlar, tabib dunyodan o'tganlaridan so'ng qishloq shu kishini nomlariga qo'yilgan. Qishloq aholisi ko'payganidan so'ng qishloq ikkiga bo'lingan Yuqori Luqmon va Quyi Luqmonga ajralgan.

Buxorcha - bu qishloq oldin G'uborcha bo'lgan, keyinchalik Buxorcha deb nomlangan.

Beklar - Ko'salar degan joy bo'lgan u joyda 3 nafar oila ko'chib kelib shu yerda yashagan. Shu qishloqda Husen bobo degan hunarmand usto bo'lgan, Husen boboni taxalluslari bek bo'lgan. Shundan kelib chiqib Beklar degan nom berilgan.

Aminobod – Amin qishloq oqsoqoli bo'lib, shu lavozimdagi shaxs tomonidan bunyod etilganligini anglatadi.

Qulonchi – 1) “ovchi” degan ma'noni bildiradi. 2) Qulonchi – urug' nomi.

Asbobsoz – Asbgardon avliyoga shu yerni atrofidan doimiy otlar aylangan. Shu yerni o'zida otlarga egar, nal, nuxta soxtik yasaganlar, juvoz yog'i, tort pishiriqlar, halvo, qand pishirganlar. Avliyo atrofida to'rt xonadon yashab, keyinchalik ko'payib “Asbobsoz” nomi berganlar.

Yangi yer qishlog'i yangidan yerlarni o'zlashtirish natijasida tashkil topgan qishloq.

Obod – Yangidan ochilgan obod qilingan qishloq ma'nosini anglatadi.

Arablar – etnotoponim. Arab qabilasiga mansub qabilalar shu qishloqda joylashganligi sababli shunday nomlangan.

Mirzayon – kasb-kor bilan bog'liq bo'lgan toponim. O'qimishli, ziyoli xalq ko'p bo'lganligi sababli shunday nomlangan.

To'prez – Amirni to'pchilari shu yerdan bo'lganligi sababli shunday nomlangan.

Rahimobod – antropotoponim. Yosh oilalardan tashkil topgan yangi qishloq Rahimobod qishlog'i vaqti zamonda cho'l bo'lgan, Rahim ismli inson bu yerlarni obod qilganligi sababli Rahimobod deb nomlangan.

Qaraxumori – Qarashga xumor qiladigan ma'noni bildiradi. Izoh tushunarsiz.

Hojikanda – Shu qishloq o'rtasidan o'tgan kanal bo'lgan, bundan bir necha yillar muqaddam Hoji ismli bir kishi o'sha kanalni qo'lida qazib o'tgan, shundan keyin shunday nomlangan. Gidrooykonim.

Bahoriston – neotoponim. Urganji va Hojikanda qishloq yoshlari oilalaridan tashkil topib ya'ni yoshlik Bahoriston deb yuritilgan.

Chorg'uli – 1909-yil to'rt kishi ko'chib kelgan, shu sababli Chorg'uli deyilgan. Izoh uncha tushunarli emas.

Mang'it – etnooykonim. Mang'it urug'iga mansub kishilar yashagan joy. Mang'itilar sulolasi bo'lgan Amudaryo yoqasida xalq yashagan bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullangan 320 yillarda Buxoroda Mangitilar Xorazim, Amu daryo chegarasida hukumdorlik qilgan. Mang'itilar yashagan shu bilan Mang'it deb atalgan. O'zbek millati tarkibiga kirgan qabila[5].

Qorovul – 1. Amirlik davrida qaravullik tashkil qilingan bo'lib o'sha davrda bir mehmon kelgan u kim deb so'ragan, shunda u mexmonga u kishi qaravul degan. Shu bilan qishloq nomi Qaravul qishloq bo'lib qolgan. 2. Kasb – hunar nomi bilan bog'liq.

Navrabot – “Nav” qishlog'idan olingan bo'lib, “Yangi” qishloq degan ma'noni bildiradi.

Yuqori Moxoncho'l – 1950 yilda tashkil topgan bo'lib, Moxoncho'l – kenglik yaylov ma'nolarini bildiradi.

Urganjiyon – urug' nomi. Amirlar davrida Urganjilar har qayerda tarqoq bo'lib yashagan keyinchalik bir-birini topib bitta qishloq bo'lib birlashib Urganjiyon tashkil qilganlar.

Tuman toponimlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyat toponimiyasining asosiy xususiyati – joy nomlari tarkibida etnotoponimlar va kasb-hunariga qarab nom berilgan oykonimlarning ko'p qayd qilinishi o'rganilayotgan hudud uchun ham xos. Shu bilan birga tuman joy nomlari orasida neotoponimlar ko'p uchrashi uning o'ziga xos xususiyatidir. Bu tumanda yaqin o'tmishda o'zlashtirilgan hududlarning mavjudligi bilan izohlanadi[3].

Xulosa qilib aytganda, kelajakda maktab ta'limida geografiya darslarida toponimlarni o'rganishga, bilishga oid mavzular kiritilsa yoki har bir tumanning toponimiyasi bo'yicha kitoblar nashr etilsa, dars jarayonida o'rganilayotgan mavzularda uchraydigan joy nomlari haqida o'quv qo'llanmalar chop etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova L. O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi. Toshkent. "Fan". 1982 y. 93 b.
2. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. Toshkent 2008 y.
3. Nematov A.N., Жўраева М.Н. Қоракўл тумани ойконимларининг таснифи. "География ХХІ асрда: муаммолар, ривожланиш истикболлари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2017 й.
4. Nizomov A, Rahimova G, Rasulova N. Toponimika. Toshkent. "Sharq" nashriyoti. 2012 y. 120 b.
5. Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. Toshkent. "Fan", 1964 y. 111 b.